

IPOTEKA BOZORINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYAVIY

INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521494>

Hayotjon Vohidov

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Mavzuning dolzarbliji. Zamonaviy sharoitda global miqyosda islomiy moliyalashtirish segmenti eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. "Banklarning spekulyativ faoliyati tanazzuli vaqtida islomiy institutlari foydasi yiliga 15-20 foizga, aktivlari esa 20 foizdan ziyod o'sib bormoqda va 2020-yil uchun Islom dunyosining global bank aktivlarining yillik aylanmasi 1300 milliard dollardan ortiqroqga baholanmoqda"¹. Islomiy bank ishining yetarlicha intensiv rivojlanishiga talabning ortishi va musulmon davlatlari tomonidan moliyaviy resurslarning sezilarli darajada to'planishi sabab bo'ladi. Arab davlatlarining moliya bozorlari faol rivojlanib borayotgani va g'arbiy kompaniyalar o'rtaida xorijiy investorlarni jalb qilish uchun raqobat mavjudligini hisobga olsak, islomiy banklarning o'sish tendentsiyasi davom etishini ta'kidlash mumkin. Bu islomiy banklar faoliyatini yanada kengroq tahlil qilish, shuningdek ularning moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini aniqlash uchun zarur shartlarni belgilaydi. Bugungi kunda O'zbekiston moliya bozorini xususan, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga, shuningdek, xalqaro fond birjalarida o'z pozitsiyasini egallashga harakat qilmoqda. Islom moliyasi tarmog'i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, "islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 2,5 trillion AQSh dollarini tashkil etadi va yiliga 15-20% ga o'sib bormoqda"². Aholisining asosiy qismi muslimonlardan iborat bo'lgan davlatlar, shu jumladan, mamlakatimiz uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi.

¹ Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. – 48 с.

² www.islommoliyasi.uz - islam moliyasi bo'yicha ma'lumotlar taqdim etuvchi rasmiy veb-sayt ma'lumotlari

Mavjud muammolar. Bugungi kunda ipoteka bozorini rivojlantirish va mazkur bozorda rejalashtirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish mamlakatimizda muhim ahamiyatga ega. Biroq mazkur sohada moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar yetarlicha saqlanib qolmoqda. Xususan, ipoteka bozorida moliyalashtirish manbalarining tor doirada ekanligi, moliyalashtirishda faqatgina bank kreditlariga tayanib qolayotganligi, ipoteka bozoriga mahalliy va xorijiy investorlarning keng ko‘lamda jalg etilmayotganligi kabilar shular jumlasidandir. Shu sababli mazkur muammolarni hal etish bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Sukuk (islom qimmatli qog‘ozlari) islom moliya tizimida mavjud bo‘lgan ba’zi cheklar tufayli o‘rta va uzoq muddatli moliyalashtirish uchun yaratilgan islomiy moliyaviy vositalar sifatida qaraladi. Ushbu vositalar oddiy obligatsiyalarga juda o‘xshaydi, biroq ikkalasi o‘rtasida ham ba’zi farqlar mavjud va ba’zi hollarda ular aksiyalarning xususiyatlariga ega (1-rasm).

Сукукниг облигациялардан фарқи жихатлари	Сукукни эмиссия қилиш йўли билан тўпланган маблағлар умумий мақсадлар учун эмас, балки белгиланган активларга инвестициялар учун қўлланилиши керак. Бу шуни англатадики, аниқланган активлар ислом облигациялари учун асос бўлиши керак.
	Сукук асосий молиявий бўлмаган активларга асосланганлиги сабабли сукукдан олинадиган даромад маблағ ишлатилиши мақсадига боғлик бўлиши керак.
	Сукук сертификати маблағ қўйилаётган активларга мутаносиб эгалик хуқукини англатади. Мулк хуқуки, сукукнинг етуклик санаси билан тугайдиган маълум бир муддатга, асл эгасидан сукук эгаларига ўтказилади


1-rasm. Sukuk hamda obligatsiyalarning farqli jihatlari³

Sukukning afzalliklari orasida biz quyidagilarni qayd etishimiz mumkin. Birinchidan, sukuk bu o‘rta va uzoq muddatli barqaror yoki o‘zgaruvchan daromad stavkalarini ta’minlaydigan sotiladigan kapital bozori mahsulotidir. Ikkinchidan, ushbu qimmatli qog‘ozlar xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholanadi va

³ Jose Cartas and Qi He. Handbook on Securities Statistics. // Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) elektron kutubxonasi, XVFning davriy nashri, June 2015. – P. 172

uning natijalaridan investorlar sukuk emissiyasining risk parametrlarini baholash uchun foydalanadi. Uchinchidan, sukuk likvid vositadir va ikkilamchi bozorda ham sotilishi mumkin.

S&P Global Ratings tadqiqotlariga ko‘ra islom moliya sanoati o‘sishi (10,6 %) nisbatan sekinlashganiga qaramasdan 2021-2022 yillarda 10-12 %ga o‘sish kuzatiladi. Islom moliyasi 2020 yilda pandemiya va neft narxining pasayishidan zarar ko‘rishiga qaramasdan o‘sishga erishdi. Islom moliyasida bir qator ijtimoiy vositalar mavjud. Islom taraqqiyot banki 2020 yilda 1,5 milliard dollarlik sukuk chiqardi va 2021 yilda yana 2,5 milliard dollar qiymatidagi islom qimmatli qog‘ozlari emissiya qilingan. Islom taraqqiyot banki ikkinchi emissiyadan tushgan mablag‘larni ekologiya (10 foiz) va ijtimoiy rivojlanish loyihamalarini (90 foiz) moliyalashtirishga yo‘naltirishini ma’lum qildi. Ushbu sukuk asosan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika investorlariga hamda markaziy banklar va rasmiy muassasalarga ajratilgan⁴. Islom moliyasini quyidagi uch qismga ajratish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Islom moliyasining tarkibiy qismlari⁵

“Islom bank-moliya sohasi so‘nggi yillarda yuqori suratlarda rivojlandi. Tadqiqotlarga ko‘ra, islom moliyasi musulmon aholisi ko‘p, ammo ularning katta qismi an’anaviy banklarning moliyaviy xizmatlaridan foydalanmaydigan davlatlarning iqtisodiy o‘sishi hisobiga kengayib borishi kutilmoqda. Shuningdek, shariatga mos moliyaviy mahsulotlarga sarmoya kiritish istagida bo‘lgan ko‘plab neft eksport qiluvchi mamlakatlar sarmoyalari ham bunga turtki bo‘lmoqda. Islom moliyasining kengayishi bir qator manfaatlarga ega bo‘lish imkonini berishi mumkin. Masalan, islom moliyasi o‘z tabiatiga ko‘ra, an’anaviy moliya tizimiga

⁴ ISLAMIC FINANCE 2021-2022: Toward Sustainable Growth. S&P Global Ratings, 2022.

⁵ Junaid Haider, Muhammad Azhar. Islamic Capital Market Sukuk and its Risk Management in the Current Scenario. // Umea School of Business Spring, Sweden, Semester, 2010. – p 19.

qaraganda inqirozga bardoshliroq va umuman tizim sifatida barqarorroq deb e'tirof etiladi”⁶. Mazkur tizimning bir qancha o‘ziga xos jihatlari mavjud (3-rasm).

-
- O‘z amaliyotlarida real aktivlarga tayanishi (ya’ni qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan har qanday amaliyotda ham, biznesni moliyalashtirishda ham);
 - Xatarlarga bo‘lgan munosabati (ya’ni biznes ishtirokchilari o‘rtasida xatarlarni mutanosib taqsimlanishiga qaratilganligi);
 - Chayqov amaliyotlari taqiqlanganligi (ya’ni mulkka egalikni qo‘lga kiritmasdan turib amalga oshiriladigan chayqov amaliyoti).

3-rasm. Islom moliya tizimining o‘ziga xos jihatlari⁷

Islomiy moliyalashtirishning eng muhim xususiyatlaridan biri uning aktivlarga asoslangan moliyalashtirishidir. So‘nggi o‘n yillikda sukuk xalqaro kapital bozorlarida tobora ommalashib borayotgan qarz vositasiga aylandi. Musulmon va nomusulmon dunyosidagi ko‘plab korxonalar va korporatsiyalar, shuningdek, milliy tashkilotlardan tashqari emitentlar turli loyihalarni, jumladan, ipoteka bozoridagi loyihalarni moliyalashtirish maqsadida sukuk chiqargan yoki kelajakda sukuk chiqarishdan manfaatdor ekanligini bildirmoqda.

Xulosa. Xulosa sifatida qayd etish lozimki, ipoteka bozori bugungi kunda keng qamrovli moliyalashtirish shakllari va manbalariga ehtiyoj sezmoqda. Shu sababli mazkur sohada islom qimmatli qog‘ozlari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

⁶ <https://islommoliyasi.uz/uz/islam-moliyasi-tosiq-va-imkoniyatlar/> - islom moliyasi bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etuvchi rasmiy veb-sayt ma’lumotlari

⁷ <https://islommoliyasi.uz/uz/islam-moliyasi-tosiq-va-imkoniyatlar/> - islom moliyasi bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etuvchi rasmiy veb-sayt ma’lumotlari